

# **BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING QARASHLARI.**

**Xasanova Gulnoza Ilxom qizi**  
**Maktabgacha ta'lim metodikasi**  
**kafedrasi o'qituvchisi**  
**Abiyerova Durdona**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq mutaffakkirlarining farzand tarbiyasi va uning nutq faoliyatini shakllantirishga oid fikrlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, erkin fikr, muloqot vositasi, ta'lim va tarbiya, ilmiy dunyoqarash, axloqiylik, ilmiylik, talaffuz, notiq.

**Annotation:** This article provides information on the views of Eastern thinkers on child rearing and the formation of his speech activity.

**Keywords:** communication, free thought, means of communication, education and upbringing, scientific worldview, ethics, scientific, pronunciation, speaker.

**Аннотация:** В статье представлена информация о взглядах восточных мыслителей на воспитание ребенка и формирование его речевой деятельности.

**Ключевые слова:** общение, свобода мысли, средства общения, образование и воспитание, научное мировоззрение, этика, научный, произношение, говорящий.

**KIRISH**

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyatlari va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Barchamizga ma'lumi, ta'lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyatlari va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Barchamizga ma'lumi, ta'lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud. U o'rta asrlardagi G'arb va Sharq mutafakkirlarining asarlarida ko'rib chiqilgan. O'sha davrlarning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiy va boshqalar feodal zulm va mutaasib ruhoniylarning qattiq qarshiligiga qaramasdan jahon fani, madaniyati, maorifiga beqiyos hissa qo'shdilar. Sharqining qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga etaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, bu esa uning dunyoqarashlarning umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi. U o'rta asrlardagi G'arb va Sharq mutafakkirlarining asarlarida ko'rib chiqilgan. O'sha davrlarning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiy va boshqalar feodal zulm va mutaasib ruhoniylarning qattiq qarshiligiga qaramasdan jahon fani, madaniyati, maorifiga beqiyos hissa qo'shdilar.

Sharqining qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga etaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, bu esa uning dunyoqarashlarning umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi.

## NATIJARLAR

Aynan shunday maqsadlar Forobiyning shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol rolga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi. Uning fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya oilada, o'qituvchi yoki tarbiyachi yordamida maktab-bog'chalarda va yaxshilikka asoslangan jamiyatda uning rahbari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular shaxsni ma'nan kamolotga etkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi. Forobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergan. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi, degan xulosaga keladi.

Abu Rayhon Beruniy (971 – 1050 yilga yaqin) qomusiy olim sifatida tarixga kirgan. U fanni dindan ajratish zarur deb hisoblagan, aks holda, uning fikriga ko'ra, ilmiy bilimlar haqiqiy bo'la olmaydi. Olimning dinga bo'lgan tanqidiy munosabati ko'p jihatdan uning tarbiya va ta'limga bo'lgan munosabatlarini ham belgilab berdi. Beruniy o'z asarlarida ta'limning uzluksiz, ko'rgazmali, aniq maqsadga yo'naltirilishi lozimligini va uning muayyan tizim asosida o'tkazilishi zarurligini ta'kidlagan. Beruniy yosh yigitda shaxs tarbiya jarayonida shakllanadi, deb hisoblagan. Bunda u mehnatga alohida o'rin bergan.

Beruniyning qarashlari cheklangan tusga ega edi, zero u ham o'sha davrdagi boshqa ko'plab olimlar singari fan va bilim jamiyat taraqqiyotida mutlaq ahamiyatga ega, deb bilgan. Biroq fan, bilim, mehnatning ahamiyati haqidagi fikrlarning o'zi to'g'ri edi. Bilim olishning o'zini Beruniy kuch, vaqt va sabr-toqat talab qiladigan mehnat, deb hisoblagan.

Ibn Sino (980 - 1037) pedagogika masalalariga ijodiy yondoshgan. U bola tabiatini nafaqat tabib, balki etuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Olimning bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ko'plab fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to'g'ri talqin qilishi bilan kishini lol qoldiradi. Ibn Sino taklif qilgan tarbiya va ta'lim mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rgatishlarni o'z ichiga oladi. Ibn Sino

bola tarbiyasining butun mashaqqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. «Tib qonunlari»ning «Tarbiya haqida» nomli bo‘limida qo‘yilgan masalalar aniq hal etiladi, bola xarakterini tarbiyalash haqida qimmatli fikrlar bildiriladi.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodiyotida oilaviy tarbiya alohida e‘tibor qaratiladi va bunda bosh rol oila boshlig‘i – ya‘ni otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki tarbiyasi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o‘z farzandi tarbiyasida ko‘proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida to‘g‘ri yo‘lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga aniq vazifalarni qo‘yadi: u o‘z shogirdini qachon jazolashi yoki rag‘batlantirishi mumkinligini yaxshi bilmog‘i lozim.

Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning qiziqishlarini o‘rganishga chaqiradi. U yoshga qarab davrlarga bo‘lib chiqishga harakat qilgan. O‘smirlik davrini u beshta davrga bo‘lgan: chaqaloqlik (bola tug‘ilganidan boshlab yo‘lga yurib ketgunicha bo‘lgan davr); bolalik davri (yo‘lga yurgandan so‘ng); organizm chiniqqani va qoziq tishlari chiqqanidan keyingi davr; o‘smirlik va jinsiy etilish davri; o‘smirlik davri (o‘sish to‘xtatugancha bo‘lgan davr). Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va qiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me‘yoridan ortib ketishiga qarshi chiqqan. Uning fikriga ko‘ra, risoladagidek tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalarga insoniy munosabatda bo‘lish darkor. Tarbiyachining o‘zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi lozim. Ibn Sino tarbiya omilining ahamiyatini chuqur anglagan va ijobiy omil ahamiyatini juda qadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.

Yusuf Xos Hojib (1021-9 yillarga yaqin) o‘rta asrning boshqa ko‘plab olimlari singari musulmon SHarqi xalqlarining madaniy rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan. SHarqning «Taqvodorlar tuhfalari» devoni (XII asr) insonni axloqan tarbiyalash muammolari ko‘rib chiqilgan dastlabki didaktik asarlaridan biri hisoblanadi. Uning so‘zlashishdagi bosiqlik va odob qoidalari haqida bildirgan fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan: «Ma‘rifatli kishining

soʻzlarini tingla. Tarbiya qoidalaridagi asosiy narsa – bu til, unga ehtiyot boʻlmoq lozim. Yaxshi soʻzli kishi hurmatga, tili zahar kishilar esa nafratlanishga loyiqdir. Kishining ustidan kulma va uning jahlini chiqarma: oʻq etkazgan zahmat bitadi, soʻz bilan etkazilgan zahmat esa hech qachon bitmaydi».

## **MUHOKAMA**

Biroq, oʻz tasavvurida shoir kishilarda oliy axloq sifatlarini tarbiyalash orqali umumiy farovonlikka erishish mumkin, deya hisoblagani holda oʻsha davrda hukmron boʻlgan dunyoqarashlardan yuqori koʻtarilmaydi.

Oʻzbekistonda XVI asrdan keyingi asosiy pedagogik fikr yoʻnalishlari va ularning xususiyatlarini tushunish uchun qomusiy olim boʻlgan, oʻz zamondoshlari oʻrtasida juda mashhur boʻlgan Jaloliddin Devoniy (1427 - 1502) asarlari bilan tanishish zarur.

Garchi Devoniy Eron hududida yashagan va ijod qilgan boʻlsa ham uning «Etika Jalom» nomli asari Oktyabr inqilobiga qadar Samarqand va Buxorodagi madrasalarda oʻquv qoʻllanmasi sifatida foydalanilgan hamda Oʻrta Osiyodagi koʻplab ilgʻor mutaffakirlarning (YUsuf Qorabogʻiy, Abu Tohir Samarqandiy, Abdulla Avloniy) pedagogik va axloqiy qarashlarini shakllantirishda katta rol oʻynagan. Ushbu fundamental asarida Devoniy oʻsib kelayotgan avlodni tarbiyalash, tarbiya va taʼlim jarayonida ijobiy sifatlarga ega boʻlish lozimligi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Devoniy asarlarida tarbiyalashda, taʼlim metodikasida maktab va oʻqituvchining tutgan oʻrni haqida koʻplab ijodiy fikrlar juda koʻp. Uning asarlarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, Devoniy oʻz davrining ilgʻor mutafakkiri boʻlgan hamda uning taʼlim va tarbiya haqidagi koʻplab gʻoyalari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Ayniqsa Alisher Navoiy Oʻzbekiston xalqi qalbidan chuqur joy olgan. Uning asarlari besh yuz yildan buyon koʻplab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat gʻoyalari, insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy oʻrin tutadi. Navoiyning pedagogik qarashlari oʻta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda

katta ahamiyat bergan, Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq, deb bilgan. Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, so'zlash – bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, faoliyat nazariyasi nuqtai-nazaridan olganda bu – ichki motivatsiyalangan, qat'iy tashkil etilgan jarayon hisoblanadi. So'zlash predmeti fikr bo'lib, u «nimani nima bilandir birlashtirishga, nima bilan nimadir o'rtasida munosabat o'rnatishga intiladi». Nutqiy harakat so'zlash faoliyatining birligi hisoblanadi, ushbu faoliyatning mahsuli esa matndir. Nutqiy qobiliyatlarni shakllantirish sohasida ravon nutq va nutq madaniyatini shakllantirish ustidagi ishlar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, dialogik nutq bilan tutashadi.

## **REFERENCE.**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

Xasanova, G. (2021). Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etishning mazmunimaktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etishning mazmuni. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4355>

Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021 Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 1051-1056.

Xasanova, G. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4430>

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH](#) , [Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal \(2021\): Preschool education journal](#)

Gulnoza Xasanova, [OILADA BOLALARGA MILLIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI.](#) , [Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal \(2021\)](#)

Gulnoza Xasanova, [SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR](#) , [Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal \(2021\)](#)

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNIMAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI](#) , [Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal \(2021\): Preschool education journal](#)

Xasanova, G. (2021). «ПЕДАГОГ ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ ПЕДАГОГИК КОМПИТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ MAZMUNI». *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://ruslit.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2809>